

## PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARINING ILMIY ASOSLARI

**Saxlayeva Aziza**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maktabgacha va boshlang'ich*

*ta'lim Metodikasi kafedrası magistranti*

[aminamuhammadjonova2023@gmail.com](mailto:aminamuhammadjonova2023@gmail.com)

+998(77) 287-57-72

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni joriy etishning nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlari, ta'lim sifatini oshirishdagi o'рни va ushbu jarayonda yuzaga keladigan tizimli muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli adaptatsiya qilish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik innovatsiya, oliy ta'limda innovatsiyalar, ta'lim texnologiyasi, mexanizm, modernizatsiya, kreativlik, integratsiya, metodologiya.*

**Аннотация:** *В данной статье освещены теоретические и методические основы внедрения педагогических инноваций в современную систему образования. В ходе исследования проанализированы механизмы управления инновационными процессами, их роль в повышении качества образования и системные проблемы, возникающие в этом процессе. Также разработаны научные рекомендации по успешной адаптации инноваций.*

**Ключевые слова:** *педагогическая инновация, образовательная технология, механизм, модернизация, креативность, интеграция, методология.*

**Abstract:** *This article highlights the theoretical and methodological foundations of introducing pedagogical innovations into the modern education system. During the research, the mechanisms of managing innovative processes, their role in improving the quality of education, and systemic problems arising in this process were analyzed. Scientific recommendations for the successful adaptation of innovations have also been developed.*

**Keywords:** *pedagogical innovation, innovations in higher education, educational technology, mechanism, modernization, creativity, integration, methodology.*

Global o'zgarishlar va raqamli iqtisodiyot rivoj topayotgan bir davrda ta'lim sohasidagi qarashlar ham avvalgidan farq qilmoqda. Albatta, bunga texnologiya va hozirgi jamiyat kishilarining yashash tarzi, fikrlashi hamda yoshlar orasidagi turli odatlar ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va xalqaro standartlar

darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni shunchaki qo'llash emas, balki ularni joriy etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini yaratish ta'lim samaradorligini kafolatlaydi. Bunga universitet misolida qaraydigan bo'lsak, zamonaviy universitet nafaqat ta'lim beruvchi dargoh, balki innovatsion rivojlanish mexanizmi bo'lishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim mazmunini yangilash va o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[7].

Pedagogik innovatsiya — bu ta'lim jarayoniga yangilik kiritish, o'qitish usullari va mazmunini yangilash orqali yuqori natijadorlikka erishishdir. Uni joriy etish mexanizmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Diagnostika: Ta'lim muassasasining innovatsiyaga tayyorlik darajasini aniqlash.  
Loyiha tuzish: Yangilikni joriy etishning ilmiy va amaliy modelini shakllantirish.  
Implementatsiya: Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga sinov tariqasida kiritish.  
Monitoring va baholash: Natijalarni kutilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirish.  
Oliy ta'limdagi pedagogik innovatsiya tushunchasini o'rganadigan bo'lsak, ta'lim jarayonidagi yangicha yondashuv, o'quv natijalari reytingini oshirish hamda bitiruvchi talabalarning mehnat bozorida raqobatdoshligini kafolatlashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Buning uchun universitet ichki nizomlari va innovatsion qarashlarni birlashtirishi; innovator talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishi; zamonaviy o'quv xonalari, laboratoriyalar va jihozlar hamda tezkor internet hizmatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim bo'ladi[3].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarning deyarli 68% sub'ektiv pedagogik to'siqlar sababli yakuniga yetmaydi yoki umuman amalga oshirilmaydi. Aksincha, innovatsiyalarni joriy etuvchi kadrlar o'rganilganda, ularning qariyb 72% ga yaqini bilim darajasi yuqori, salohiyatli hamda innovatsion ochiqlik kompetensiyasiga ega ekani aniqlangan. Agar o'qituvchida "innovatsion immunitet" (yangilikka qarshilik) yuqori bo'lsa, eng zamonaviy texnologiya ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, mexanizm tarkibiga pedagoglarning psixologik tayyorgarligi va moddiy rag'batlantirish tizimini kiritish zarur. Universitet ta'limida mexanizmlarni ilmiy asosi, avvalambor, pedagog hodimning ilmiy g'oyasi va unga mos texnik imkoniyatlarga ega bo'lish nazarda tutiladi. Universitetda innovatsional muhit shakllanishining yana bir muhim omili ushbu dargohdagi kafedra mudrlari va dekanatning boshqaruv mahorati asosiy drayver bo'lib hizmat qiladi[1].

Innovatsiyalarni joriy etishda quyidagi omillar muhim:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish;

Interaktiv metodlarning fan mazmuniga mosligi;

Talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganlik[2].

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, to'g'ri ishlab chiqilgan mexanizm yordamida ta'lim tizimida innovatsion tizim yo'lga qo'yilishi nafaqat ta'lim sifatini, balki oliy ta'lim tizimining global raqobatdoshligini ham oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar shunchaki nazariyada qolib ketmasdan, balki tizimli amaliyotga ko'chganining isboti o'laroq QS World University Rankings 2025 reytingida O'zbekiston OTMlarining 7 nafari joy olgani, Global Innovatsiya Indeksi(GII) da O'zbekistonning 79-o'ringa ko'tarilgani, Times Higher Education(THE) dagi reytinglarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Innovatsiyalarni joriy etish mexanizmi sifatida O'zbekiston OTMlarning birini misol qiladigan bo'lsak, ushbu jarayonni boshdan kechirayotgan Toshkent Kimyo xalqaro universiteti (KIUT) yutuqlari bunga yaqol dalil bo'la oladi. Universitetning Times Higher Education(THE) reytingida "Reporter" maqomini olish va Barqaror rivojlanish maqsadlari(SDG) bo'yicha global 1000 talikka kirishi pedagogik innovatsiyalarning amaliy samarasidir[8].

Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish — bu dinamik jarayon hisoblanib, u doimiy ilmiy tahlil va tahriri taqozo etadi. Ilmiy asoslangan mexanizmlar orqali ta'limni modernizatsiya qilish nafaqat bilim berish sifatini oshiradi, balki raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlaydi. Shuni unutmaslik kerakki, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish shunchaki yangi texnologiyalardan foydalanish emas, balki uni ijtimoiy hayotga olib kirish va ta'limda keng qo'llash talab etiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – T., 2006.
2. Ishmuhamedov R.J. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". – T., 2010.
3. Ibragimov X.I. "Pedagogika nazariyasi".
4. Rogers E.M. "Diffusion of Innovations". – New York, 2003.
5. Jo'rayev R.H. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".
6. Xodjayev B.X. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti".
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasi.-Toshkent,2019.
8. Times Higher Education Impact Ranking 2024:KIUT profile date. [Online resource].